
“Fidoi yoshlar yetakchisi” respublika ko‘rik tanlovining Farg‘ona shahar bosqichi bo‘lib o‘tdi,

"Monomarkaz"ning faollar zalida "Fidoi yoshlar yetakchisi" respublika ko‘rik tanlovining shahar bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda shahrimizdagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilari 4 ta shart doirasida bellashdilar.

Ko‘tarinki ruh va muosasiz o‘tgan tanlovda hakamlar hay‘ati barcha shartlar bo‘yicha ishtirokchilarni baholab bordilar. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 1-o‘rinni "Gulzor" MFY yoshlar yetakchisi Jahongir Isroilov egalladi.

"Sohibkor" MFY yoshlar yetakchisi Nargizaxon Sobirova 2-, "Qirguli" MFY yoshlar yetakchisi Ahrorjon Isaqov munosib deb topildilar. 1-o‘rinni egallagan yoshlar yetakchisi Jahongir Isroilov viloyat bosqichiga yo‘llanmani ham qo‘lga kiritdi.

2022-06-18 09:16:15